

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19-yanvardagi "Mahallalardagi yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 92-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarorida Yoshlarni sport musobaqalariga keng jalb etish belgilangan.

Sport musobaqalari

Bundan tashqari, DXX Raisi kubogining tuman bosqichida ishtirok etgan 15 ta mahalla jamoalarining 9tasiga sport kiyimlari va anjomlari, eng yangi rusumdagi telefon apparatlari, diplom va qimmatbaho

DXX KUBOGINING TUMAN BOSQICHI NIHOYASIGA YETDI



Shu munosabat bilan 2023 yilning 10 aprelidan boshlab "Davlat xavfsizlik xizmati" kubogi doirasida mahallalardagi 16-30 yoshdagi o'g'il bolalar o'rtasida sportning "Katta futbol" va "Mini futbol", qizlar o'rtasida "Mini futbol" turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tdi va quyidagi natijalar qayd etildi.

Musobaqaning "Katta futbol" turi bo'yicha o'g'il bolalar o'rtasida bo'lib o'tgan tuman bosqichida "Paxtakor" mahallasi yoshlari 1-, "Bog'ishamol" mahallasi futbol jamoasi 2-, "Buyuk ipak yo'li" mahallasi sportchilari 3-o'rinni qo'lga kiritishdi.

O'g'il bolalar o'rtasida "Mini futbol" turi bo'yicha 1-o'rinni "Dilorom" mahallasi futbol jamoasi egallagan bo'lsa, "Olmazor" mahallasining yoshlari 2-, "Do'stlik" mahallasining futbol jamoasi esa 3-o'rin bilan kifoyalanishdi.

Hakamlar hay'atining qaroriga ko'ra musobaqaning qiz bolalar o'rtasida tashkil etilgan "Mini futbol" turi bo'yicha "Samarqand" mahallasining to'rtaparlari 1-, "Paxtakor" mahallasining futbolchilari 2- va nihoyat "Bog'ishamol" mahallasining charm to'p ishqibozlari 3-o'ringa munosib deb, topildi.

sovg'alari topshirildi.

Tadbinning "DXX raisi kubogi"ning tuman bosqichi g'oliblarini tantanali taqdirlash marosimi tumanimizning tanikli xush ovoz xonandalari ishtirokidagi konsert dasturi bilan yanada qiziqarli davom etdi. Ta'kidlash lozimki, "millionlar o'yini" nomini olgan ushbu sport turi joylarda yangi-yangi iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni futbolga faol jalb etish borasida tobora katta ahamiyat kasb etib bormoqda.

SH. MAMIROV.

Hamyurtlarimiz g'alabasi

Jorji yilning 20-25 may kunlari Jizzax shahrida sportning belbog'li kurash bo'yicha Osiyo chempionati bo'lib o'tdi.

Chempionat O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Jizzax viloyat hokimligi, viloyat prokuraturasi, Osiyo belbog'li kurash konfederatsiyasi, O'zbekiston belbog'li kurash federatsiyasi va boshqa tashkilotlar hamkorligida tashkil etildi.

Ushbu nufuzli musobaqada hammyurtlarimiz- 62 kg. vazn toifasida o'z kuch-qudratini namoyish etgan O'rolov Doniyor, 100 kg. vazn toifasida o'z raqibidan ustun kelgan Axatjonov

OSIYO CHEMPIONATI

